Moliyaviy natijalar auditini rejalaştirişda muhimlik darajasini töğri belgilaş hal qiluvçi ahamiyatga ega, çunki u tanlanma hajmini, tekşiruv çuqurligini va aniqlangan xatolarning auditorlik xulosasiga ta'sirini belgilaydi. XAS 320 ning A8-bandida foyda özgaruvçan bölgan hollarda boşqa asosiy körsatkiçlardan foydalaniş maqsadga muvofiqligi qayd etilgan. Jamiyat natijasi yillar kesimida keskin özgarib turgani (2023-yilda zarar, 2025-yilda foyda) sababli muhimlik darajasini sof tuşum asosida hisoblaş asosliroq hisoblanadi. Şu asosda umumiy muhimlik darajasi sof tuşumning 0,5 foizi, işçi muhimlik umumiy muhimlikning 60 foizi, valyuta kurs farqlari uçun maxsus muhimlik 50 foizi, aniq ahamiyatsiz xatolar çegarasi esa 5 foizi miqdorida belgilanişi taklif etildi.

Moliyaviy natijalar içki auditida segmentli integral risk mexanizmi. «Özbekiston temir yöllari» AJda moliyaviy natijalar içki auditini takomillaştiriş maqsadida temir yöl transporti korxonalarining infratuzilmasidan foydalaniş, xizmatlar körsatiş bilan boğliq faoliyat yönalişlarining tarmoqqa xos xususiyatlari, ular böyiça şakllanadigan daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalar körsatkiçlarining beş yillik dinamikasi hamda içki nazorat muhitining holatini özaro boğliqlikda baholaş asosida «tarkibiy-riskka yönaltirilgan içki audit baholaş usuli» işlab çiqildi. Mazkur usulning ilmiy ahamiyati şundan iborat, unda «Özbekiston temir yöllari» AJ va uning tarkibidagi «Özbekiston temir yöllari» AJ «Toşkent yölovçi vagonlarini quriş va ta'mirlaş zavodi» AJ, «Temiryölinfratuzilma» AJ Temir yöl monitoringi va diagnostika markazi» filiali, «Temiryölinfratuzilma» AJ «Toşkent mintaqaviy temir yöl uzeli» filiali Toşkent temir yöl masofasi filiali moliyaviy natijalari korxona faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovçi yagona umumlaşgan foyda yoki zarar körsatkiçi sifatidagina emas, balki uni şakllantiruvçi asosiy faoliyat yönalişlari kesimida şakllanadigan daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalarning özaro boğliq tizimi sifatida kompleks tahlil qilinadi.

Temir yöl transporti korxonalarida moliyaviy natijalar içki auditini ötkazişning an'anaviy, barça obyektlarni bir xil darajada qamrab oluvçi umumiy tekşiruv yondaşuvidan taklif etilayotgan usulning tubdan farqi quyidagilarda namoyon böladi: birinçidan, çeklangan resurslarini içki audit risk darajasi yuqori bölgan tarkibiy böğinlarga maqsadli ravişda yönaltiriş; ikkinçidan, moliyaviy natijalar şakllaniş jarayonida sodir bölişi mumkin bölgan ehtimoliy buziliş va notöğri aks ettirişlarni dastlabki bosqiçlarda aniqlaş; uçinçidan, korxonada amal qilayotgan içki nazorat tizimining real samaradorlik darajasini xolisona baholaş; törtinçidan esa, korxona boşqaruv organlarini qaror qabul qiliş jarayonida zarur böladigan işonçli va dolzarb axborot-tahliliy materiallar bilan ta'minlaş imkonini beradi. Şu jihatdan, «tarkibiy-riskka yönaltirilgan içki audit baholaş usuli» «Özbekiston temir yöllari» AJ va uning tarkibidagi «Özbekiston temir yöllari» AJ «Toşkent yölovçi vagonlarini quriş va ta'mirlaş zavodi» AJ, «Temiryölinfratuzilma» AJ Temir yöl monitoringi va diagnostika markazi» filiali, «Temiryölinfratuzilma» AJ «Toşkent mintaqaviy temir yöl uzeli» filiali Toşkent temir yöl masofasi filiali moliyaviy natijalar içki auditi risklarni miqdoriy baholaşga asoslangan, risklarni oldindan aniqlaş va baholaşga yönaltirilgan yondaşuv orqali takomillaştiriş muhim ilmiy-amaliy mexanizmi hisoblanadi.

Auditorlik riski klassik yondaşuvda quyidagi uç tarkibiy qismning özaro köpaytmasi orqali ifodalanadi:

1 Muallif işlanmasi.

$$AudR=AjR\times NVR\times AnRAudR = AjR \times NVR \times AnRAudR =AjR \times NVR \times AnR$$

bu yerda:

AudR – auditorlik riski;

AjR – ajralmas risk; **NVR** – nazorat vositalari riski;

AnR – aniqlanmaslik riski.

Mazkur klassik model, mohiyatan, korxonaning yaxlit moliyaviy hisoboti darajasida qöllanilişga möljallangan bölib, u moliyaviy natijalarning içki tarkibiy tuzilişidagi risk darajasining bir xil emasligini inobatga olmaydi. Şu bois, uşbu usul «Özbekiston temir yöllari» AJ va uning tarkibidagi «Özbekiston temir yöllari» AJ «Toşkent yölovçi vagonlarini quriş va ta'mirlaş zavodi» AJ, «Temiryölinfratuzilma» AJ Temir yöl monitoringi va diagnostika markazi» filiali, «Temiryölinfratuzilma» AJ «Toşkent mintaqaviy temir yöl uzeli» filiali Toşkent temir yöl masofasi filiali moliyaviy hisobotiga emas, balki moliyaviy natijalar şakllanadigan har bir faoliyat tarkibiga moslaştirilib, quyidagi körinişda transformatsiya qilindi:

$$SIARs = MAjRs \times INRs \times AARsSIARs = MAjRs \times INRs \times AARsSIARs = MAjRs \times INRs \times AARs$$

bu yerda:

SIARs – s-segment böyiça segmentli integral audit riski;

MAjRs – s-segment böyiça moliyaviy natijaga xos ajralmas risk;

INRs – içki nazorat riski;

AARs – audit amallari orqali aniqlanmaslik riski;

s – yuk taşiş, yölovçi taşiş, infratuzilma xizmatlari, yordamçi xizmatlar va moliyaviy faoliyat segmentlari.

Ajralmas risk öz navbatida moliyaviy natijaga ta'sir etuvçi xususiy risklarning vaznli yiğindisi sifatida aniqlanadi:

$$SIAR_s = (W_1R_{daromad} + W_2R_{xarajat} + W_3R_{foyda} + W_4R_{debitor} + W_5R_{majburiyat}) \times INR_s \times AAR_sSIAR_s = (W_1R_{daromad} + W_2R_{xarajat} + W_3R_{foyda} + W_4R_{debitor} + W_5R_{majburiyat}) \times INR_s \times AAR_sSIAR_s = (W_1R_{daromad} + W_2R_{xarajat} + W_3R_{foyda} + W_4R_{debitor} + W_5R_{majburiyat}) \times INR_s \times AAR_s$$

bu yerda:

$R_{daromad}$ - daromadlarni tan oliş va moliyaviy hisobotda töliq aks ettiriş riski;

$R_{xarajat}$ - xarajatlarni notöğri tasniflaş yoki asossiz oşiriş riski;

R_{foyda} - sof foyda yoki zarar şakllanişida buzib körsatiş yuzaga keliş riski;

$R_{debitor}$ - debitorlik qarzlarining qaytmasligi yoki keçikib undirilişi riski;

$R_{majburiyat}$ - majburiyatlar va qarz yukining ortişi bilan boğliq risk;

W_1–W_5 - har bir risk omilining yakuniy moliyaviy natijaga ta'sir darajasini ifodalovçi, ekspert baholaş usuli asosida aniqlanadigan va $\sum W_i = 1$ şartini qanoatlantiruvçi vazn koeffitsiyentlari;

INR_s - s-segment böyiça içki nazorat samaradorligi riski;

AAR_s - s-segment böyiça içki auditor tomonidan aniqlanmaslik riski.

Mazkur modelning ilmiy ahamiyati şundaki, auditorlik riski faqat umumiy hisobot darajasida emas, balki moliyaviy natija şakllanadigan har bir segment böyiça aniqlanadi va bunda daromad, xarajat, foyda, debitorlik qarzlari hamda majburiyatlar bilan boğliq xususiy risklar ularning yakuniy moliyaviy natijaga ta'sir yuki darajasida hisobga olinadi. Bu içki audit resurslarini yuqori riskli yönalişlarga yönaltiriş, past riskli yönalişlarda esa ortiqça tekşiruv hajmini qisqartirişga xizmat qiladi.

3-jadval

«Özbekiston temir yöllari» AJda moliyaviy natijalar içki auditi uçun segmentli integral risk modeli[2]

Segment	Asosiy audit obyekti	Moliyaviy risk indikatori	Risk bahosi	Içki audit yondaşuvi
Yuk taşiş	Yuk taşişdan daromad va tannarx	Tuşum, tarif, yoqilği, lokomotiv xarajatlari, debitorlik qarzlari	SIAR1	Yuqori hajmli substantiv tekşiruv, şartnoma va tariflar auditi
Yölovçi taşiş	Yölovçi taşişdan daromad va zarar	Ijtimoiy tariflar, subsidiyalar, yönalişlar rentabelligi	SIAR2	Zarar keltiruvçi yönalişlar böyiça faktorli audit
Infratuzilma xizmatlari	Yöl, stansiya va infratuzilma xizmatlari	Amortizatsiya, ta'mirlaş, kapital siğim, xizmat haqi	SIAR3	Aktivlardan foydalaniş samaradorligi auditi
Yordamçi xizmatlar	Qöşimça va servis xizmatlari	Ombor, logistika, ijara, ekspeditorlik daromadlari	SIAR4	Daromadlarning töliq tan olinişi va şartnomalar auditi
Moliyaviy faoliyat	Foiz, kurs farqi, kredit va qarzlar	Foiz xarajatlari, valyuta riski, moliyaviy majburiyatlar	SIAR5	Qarz yuki va moliyaviy xarajatlar auditi

2 Muallif işlanmasi.

«Özbekiston temir yöllari» AJ va uning tarkibidagi «Özbekiston temir yöllari» AJ «Toşkent yölovçi vagonlarini quriş va ta'mirlaş zavodi» AJ, «Temiryölinfratuzilma» AJ Temir yöl monitoringi va diagnostika markazi» filiali, «Temiryölinfratuzilma» AJ «Toşkent mintaqaviy temir yöl uzeli» filiali Toşkent temir yöl masofasi filiali moliyaviy natijalar içki auditida risklarni baholaşni tizimli va izçil taşkil etiş maqsadida uni beş bosqiçda amalga oşiriş maqsadga muvofiq deb hisobladik. Mazkur bosqiçlar asosida «Özbekiston temir yöllari» AJda moliyaviy natijalarni şakllantiruvçi faoliyat yönalişlarini alohida tahlil qiliş, risk indikatorlarini aniqlaş, ularni miqdoriy baholaş, audit dasturini risk darajasiga moslaştiriş hamda yakuniy auditorlik xulosasini risk reytingi asosida şakllantirişni nazarda tutadi:

1-bosqiç. Segmentlarni ajratiş. Jamiyat faoliyati yuk taşiş, yölovçi taşiş, infratuzilma, yordamçi xizmatlar va moliyaviy faoliyat yönalişlariga ajratiladi.

2-bosqiç. Moliyaviy natija risk indikatorlarini belgilaş. Har bir yönaliş böyiça tuşum, xarajatlar siğimi, rentabellik, debitorlik qarzlari, qarz yuki, pul oqimi va zarar köriş ehtimoli aniqlanadi.

3-bosqiç. Integral risk bahosini hisoblaş. Har bir faoliyat yönalişi, tarkibiy bölinmalar böyiça risk past, örta va yuqori darajada baholanib, 0,33; 0,50; 1,00 koeffitsiyentlari orqali miqdorlaştiriladi.

4-bosqiç. Audit dasturini riskka moslaştiriş. Yuqori riskli yönalişlarda tekşiruv 70–100 foiz qamrovda, örta riskli segmentlarda tanlab tekşiriş, past riskli segmentlarda esa tahliliy amallar asosida audit ötkaziladi.

5-bosqiç. Içki audit xulosasini risk reytingi asosida şakllantiriş. Har bir segment böyiça «yaşil», «sariq», «qizil» risk zonalari belgilanadi va kuzatuv kengaşi hamda audit qömitasiga taqdim etiladi.

4-jadval

Moliyaviy natijalar içki auditi böyiça risklarni miqdoriy baholaş mezonlari[3]

Risk darajasi	Sifat bahosi	Miqdoriy koeffitsiyent	Içki audit yondaşuvi
Past risk	Moliyaviy oğişlar ahamiyatsiz, içki nazorat barqaror	0,33	Asosan tahliliy amallar va tanlab tekşiriş
Örta risk	Moliyaviy oğişlar mavjud, nazorat muhitida ayrim zaifliklar bor	0,50	Tanlab tekşiriş, hujjatli tekşiruv va tahliliy amallar uyğunligi
Yuqori risk	Zarar, xarajatlar siğimi, qarz yuki yoki nazorat zaifligi yuqori	1,00	Keng qamrovli substantiv tekşiruv, faktorli tahlil va nazorat testlari

Koeffitsiyentlar klassik köpaytma modelining talabidan kelib çiqib tanlangan: har bir tarkibiy qism 0 dan katta va 1 dan oşmaydigan hadda ifodalanadi, yuqori risk maksimal qiymat 1,00 bilan, örta risk uning yarmi (0,50), past risk esa uçdan biri (0,33) bilan baholanadi. Past riskka nol emas, balki 0,33 berilişi audit nazariyasida risk heç qaçon töliq yöqolmasligi bilan izohlanadi.

Segmentli-riskka yönaltirilgan model «Özbekiston temir yöllari» AJ va uning tarkibidagi «Özbekiston temir yöllari» AJ «Toşkent yölovçi vagonlarini quriş va ta'mirlaş zavodi» AJ, «Temiryölinfratuzilma» AJ Temir yöl monitoringi va diagnostika markazi» filiali, «Temiryölinfratuzilma» AJ «Toşkent mintaqaviy temir yöl uzeli» filiali Toşkent temir yöl masofasi filiali moliyaviy natijalar içki auditining nazariy va amaliy asoslarini sezilarli darajada kengaytiradi. Model moliyaviy natijalarni şakllantiruvçi omillarni segmentlar kesimida tahlil qiliş, auditorlik risklarini miqdoriy baholaş, içki nazorat zaifliklarini aniqlaş va audit dasturini risk darajasiga qarab differensiallaştiriş imkonini beradi. Natijada içki audit xizmati faqat xatolarni aniqlovçi nazorat instituti emas, balki zarar, ortiqça xarajat, qarz yukining oşişi va rentabellik pasayişi xavfini oldindan körsatuvçi strategik boşqaruv elementi sifatida xizmat qiladi.

MHXS va AXS talablarini muvofiqlaştiruvçi köp bosqiçli hisob-audit usuli. «Özbekiston temir yöllari» AJ va uning tarkibidagi «Özbekiston temir yöllari» AJ «Toşkent yölovçi vagonlarini quriş va ta'mirlaş zavodi» AJ, «Temiryölinfratuzilma» AJ Temir yöl monitoringi va diagnostika markazi» filiali, «Temiryölinfratuzilma» AJ «Toşkent mintaqaviy temir yöl uzeli» filiali Toşkent temir yöl masofasi filiali moliyaviy natijalar auditini takomillaştiriş maqsadida moliyaviy natijani şakllantiruvçi xöjalik operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni, ularni MHXS talablari asosida tan oliş va baholaş mezonlari, tegişli auditorlik tasdiqlari, AXS asosida bajariladigan tekşiruv amallari hamda olingan auditorlik dalillarini yagona tizimda muvofiqlaştirişga asoslangan «köp bosqiçli hisob-audit muvofiqligini baholaş usuli» taklif etiladi.

Mazkur usulning asosiy xususiyati moliyaviy natijalar auditini faqat alohida daromad va xarajat moddalarining töğriligini tekşirişga qaratmasdan, ularning şakllanişidagi iqtisodiy operatsiyadan boşlab yakuniy sof foyda körsatkiçigaça bölgan hisob jarayonini uzluksiz auditorlik dalillari bilan qamrab olişdan iborat.

3 Muallif işlanmasi.

Bunda moliyaviy natijalar auditini taşkil etişning uçta özaro boğliq uslubiy yönalişi ajratiladi: hisob darajasi – xöjalik operatsiyalarini tan oliş, baholaş, tasniflaş va hisobotda aks ettirişning MHXS talablariga muvofiqligini aniqlaş; auditorlik darajasi – moliyaviy natijalarni şakllantiruvçi hisob obyektlari böyiça auditorlik tasdiqlarini tekşiriş, yetarli va tegişli dalillarni şakllantiriş hamda tahliliy baholaş; natijaviy daraja – aniqlangan buzib körsatişlarning soliqqa tortilgunga qadar foyda, foyda soliği va sof moliyaviy natijaga ta'sirini umumlaştiriş hamda auditorlik fikrini asoslaş.

Uşbu uç darajaning özaro boğliqligi ilmiy yangilikning markaziy ğoyasini taşkil etadi. Ya'ni moliyaviy natijalar auditida buxgalteriya hisobi va audit jarayonlari mustaqil axborot tizimlari sifatida emas, balki yagona moliyaviy natijaning şakllanişini turli mezonlar asosida baholovçi özaro boğlangan jarayonlar sifatida qaraladi.

Temir yöl transporti korxonalarida moliyaviy natijalar auditining muhim xususiyati şundaki, yakuniy foyda körsatkiçi turli iqtisodiy tabiatga ega operatsiyalarning umumlaştirilgan natijasi hisoblanadi. Misol tariqasida, yuk taşiş xizmatlaridan olinadigan tuşumning tegişli hisobot davriga mansubligi tamoyiliga nomuvofiq tan olinişi, ekspluatatsion xarajatlarning iqtisodiy mazmuniga zid ravişda kapitallaştirilişi, amortizatsiya ajratmalarining belgilangan hisob baholari asosida töğri hisoblanmasligi hamda foiz xarajatlarining iqtisodiy mazmuniga muvofiq tasniflanmasligi turli hisob obyektlarida yuzaga keluvçi tafovutlar hisoblansa-da, ularning har biri yakuniy moliyaviy natijaning şakllanişi va moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirilişiga bevosita ta'sir körsatadi.

Şu sababli tadqiqot işida moliyaviy natijalarni şakllantiruvçi operatsiyalarni auditorlik tekşiruvining boşlanğiç obyekti sifatida belgilaş, har bir operatsiya böyiça tegişli MHXS talabini aniqlaş va uşbu talabga muvofiq auditorlik tasdiqlarini tekşiriş taklif etiladi.

5-jadval

«Özbekiston temir yöllari» AJda moliyaviy natijalar auditida hisob va auditorlik jarayonlarini özaro muvofiqlaştiriş matritsasi[4]

Moliyaviy natija elementi	MHXS böyiça hisob mezoni	Asosiy auditorlik tasdiği	AXS asosida tekşiriş yönalişi	Yakuniy natijaga ta'siri
Yuk va yölovçi taşişdan tuşum	MHXS 15 – bajariş majburiyatiga muvofiq tuşumni tan oliş	Sodir böliş, töliqlik, davriy mansublik, aniqlik	XAS 315, 330, 500 – taşiş hujjatlari va hisob ma'lumotlarini soliştiriş	Tuşum va soliqqa tortilgunga qadar foyda
Savdo debitorlik qarzlari böyiça kredit zararlari	MHXS 9 – kutilayotgan kredit zararlarini baholaş	Baholaş va aniqlik	XAS 500, 540 – hisob baholari va asoslovçi ma'lumotlarni tekşiriş	Qadrsizlaniş xarajati va foyda
Ekspluatatsion xarajatlar	Iqtisodiy mazmuniga muvofiq tan oliş va tasniflaş	Töliqlik, sodir böliş, davriy mansublik, tasniflaş	XAS 330, 500, 520 – xarajat hujjatlari va dinamikasini tekşiriş	Operatsion foyda
Ijara bilan boğliq xarajatlar	MHXS 16 – foydalaniş huquqi aktivi amortizatsiyasi va ijara majburiyati foizlari	Aniqlik, baholaş, tasniflaş	XAS 500, 540 – ijara şartnomalari va hisob-kitoblarni tekşiriş	Operatsion va moliyaviy natija
Rezervlar	BHXS 37 – tan oliş va baholaş mezonlari	Töliqlik, baholaş	XAS 500, 540 – majburiyat va hisob baholarini tekşiriş	Xarajatlar va foyda
Foyda soliği	BHXS 12 – joriy va keçiktirilgan soliq	Töliqlik, baholaş, aniqlik	XAS 500, 540 – soliq hisob-kitoblari va vaqtinçalik farqlarni tekşiriş	Sof foyda
Yakuniy moliyaviy natija	Barça tegişli hisob natijalarini umumlaştiriş	Aniqlik, tasniflaş va taqdim etiş	XAS 520, 700 – umumiy tahliliy baholaş va auditorlik fikri	Hisobotdagi foyda yoki zarar

Jadvaldagi yondaşuv moliyaviy natijalar auditining faqat alohida sçyotlar böyiça tekşiruvini emas, balki buxgalteriya hisobida qöllanilgan tan oliş va baholaş mezonlarining auditorlik dalillari bilan tasdiqlanişini nazarda tutadi.

«Özbekiston temir yöllari» AJ, yuk taşişdan olingan tuşumni tekşirişda faqat şartnoma va hisobvaraq-faktura mavjudligini aniqlaş yetarli emas. Auditor MHXS 15 talablari asosida xizmat böyiça bajariş majburiyati qaçon va qanday darajada bajarilganini, tegişli tuşum qaysi hisobot davrida tan olinişi lozimligini ham baholaydi. Uşbu baholaş AXS 500 asosida olingan dalillar bilan tasdiqlanadi va AXS 520 böyiça tahliliy amallar bilan töldiriladi.

4 Muallif işlanmasi.

Şu bilan birga, savdo debitorlik qarzlari böyiça kutilayotgan kredit zararlarini baholaşda tuşumni tan olişning töğriligi va debitorlik qarzining keyingi baholanişi bir-biridan ajratiladi. Tuşumning töğri tan olinişi debitorlik qarzining töliq undirilişini anglatmaydi. Şuning uçun MHXS 9 asosida şakllantirilgan kredit zararlari bahosi alohida auditorlik tekşiruvidan ötkaziladi.

Moliyaviy natijalar auditi davomida aniqlangan buzib körsatişlarni faqat alohida hisob obyektlari doirasida qayd etiş bilan çeklanmasdan, ularning yakuniy moliyaviy natijaga ta'sirini izçil kuzatiş zarur. Bunda har bir muhim aniqlangan tafovut uçun uning kelib çiqiş manbasi, tegişli hisob obyekti, auditorlik dalili, moliyaviy natijaga ta'sir yönalişi va taklif etiladigan tuzatiş örtasidagi boğliqlik hujjatlaştiriladi.

«Özbekiston temir yöllari» AJ va uning tarkibidagi korxonalarida yuk taşiş xizmatidan tuşumning notöğri hisobot davrida tan olinişi joriy davr daromadlarini, soliqqa tortilgunga qadar foydani va tegişli soliq oqibatlarini özgartirişi mumkin. Xuddi şuningdek, asosiy vositalar böyiça amortizatsiyaning notöğri hisoblanişi ekspluatatsion xarajatlar va foyda körsatkiçlariga ta'sir qiladi.

Taklif etilayotgan usulni «Özbekiston temir yöllari» AJ va uning tarkibidagi «Özbekiston temir yöllari» AJ «Toşkent yölovçi vagonlarini quriş va ta'mirlaş zavodi» AJ, «Temiryölinfratuzilma» AJ Temir yöl monitoringi va diagnostika markazi» filiali, «Temiryölinfratuzilma» AJ «Toşkent mintaqaviy temir yöl uzeli» filiali Toşkent temir yöl masofasi filiali korxonalari amaliyotida qöllaş jarayonida bajarilgan auditorlik amallari va ularning natijalari AXS 230 «Auditorlik hujjatlaştirişi» talablariga muvofiq rasmiylaştiriladi. Bunda har bir aniqlangan buzib körsatişning kelib çiqiş manbasi, unga sabab bölgan xöjalik operatsiyasi, tegişli hisob obyekti, olingan auditorlik dalillari hamda mazkur buzib körsatişning moliyaviy natija körsatkiçlariga ta'siri özaro boğliq holda hujjatlaştiriladi. Bu esa dastlabki xöjalik operatsiyasidan yakuniy auditorlik bahosigaça bölgan tekşiruv natijalarining izçilligini ta'minlaş, aniqlangan tafovutlarning soliqqa tortilgunga qadar foyda va sof moliyaviy natijaga ta'sirini asoslaş hamda auditorlik fikrini şakllantirişda foydalanilgan dalillarni tizimli ravişda umumlaştiriş imkonini beradi.

Natijada moliyaviy natijalar auditini alohida daromad va xarajat moddalarini tekşirişga asoslangan yondaşuvdan ularning MHXS talablariga muvofiq şakllanişi, auditorlik dalillari bilan tasdiqlanişi hamda aniqlangan buzib körsatişlarning yakuniy moliyaviy natijaga ta'sirini yagona axborot zanjirida baholaşga asoslangan kompleks audit tizimiga ötkaziş imkoniyati yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida temir yöl transporti korxonalarida moliyaviy natijalar auditini xalqaro standartlar asosida takomillaştiriş böyiça quyidagi xulosa va takliflar şakllantirildi:

1. Ilmiy yondaşuvlar umumlaştirilib, moliyaviy natijalar auditi xöjalik yurituvçi subyektning hisobot davrida şakllangan daromadlari, xarajatlari, foyda yoki zarari hamda ularni moliyaviy hisobotda aks ettiriş jarayonini mustaqil, xolis va professional tarzda tekşirişga qaratilgan auditorlik faoliyati turi sifatida ta'riflandi.

2. 2022–2024-yillarda auditorlik taşkilotlari soni 21,4 foizga, auditorlar soni 31,0 foizga oşgan bölsa-da, bitta taşkilotga örtaça 7,5 nafar auditor töğri kelişi yirik korxonalarni tekşiriş salohiyati çeklanganini körsatadi. Yuk aylanmasining 51,3 foizi xalqaro taşişlar hissasiga töğri kelişi tuşumni davrlarga ajratiş, xorijiy kontragentlardan tasdiqnomalar oliş va kurs farqlarini qayta hisoblaşni moliyaviy natijalar auditining majburiy elementiga aylantiradi.

3. Moliyaviy natijalar içki auditida risk indikatorlari va segmentli integral risk bahosi (SIAR) asosida audit dasturini şakllantiriş hamda tekşiruv natijalarini «yaşil», «sariq» va «qizil» reyting böyiça umumlaştirişning beş bosqiçli mexanizmi işlab çiqildi. Risklarni 0,33; 0,50 va 1,00 koeffitsiyentlari asosida baholaş içki audit resurslarini yuqori riskli segmentlarga maqsadli taqsimlaş imkonini beradi.

4. Moliyaviy natijalarning MHXS böyiça hisob mezonlarini AXS asosidagi auditorlik amallari va dalillari bilan muvofiqlaştiruvçi hamda aniqlangan buzib körsatişlarning soliqqa tortilgunga qadar foyda, foyda soliği va sof foydaga ta'sirini baholovçi köp bosqiçli hisob-audit muvofiqligini baholaş usuli va hisob-audit matritsasi taklif etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. Özbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi «Auditorlik faoliyati töğrisida»gi ÖRQ-677-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-5307886?ONDATE=12.02.2025

2. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga ötiş böyiça qöşimça çora-tadbirlar töğrisida»gi PQ-4611-son qarori. https://lex.uz/docs/-4746047

3. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi «Özbekiston Respublikasi temir yöl transporti sohasini tubdan isloh qiliş çora-tadbirlari töğrisida»gi PQ-329-son qarori. https://lex.uz/docs/-6631602?ONDATE=11.10.2023%2000

4. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi «Özbekiston Respublikasi hududida qöllaş uçun auditning xalqaro standartlarini tan oliş tartibi töğrisidagi nizomni tasdiqlaş haqida»gi 171-son qarori. https://lex.uz/docs/-5952173
5. Şeremet A.D., Suyts V.P. Audit: uçebnik. – 5-e изд. – Москва: INFRA-M, 2006. – 448 c.
6. Panina I.V., Korobeynikova L.S., Komendenko S.N. Основы аудита: учебник. – Воронеж: Издательский дом ВГУ, 2023. – 379 с.
7. Kazakova N.A., Polisyuk G.B. va boşq. Audit: учебник-практикум. – Москва: Юрайт, 2015. – 385 с.
8. Xaxonova N.N., Xaxonova I.I., Bogataya I.N. Audit: учебное пособие. – Москва: РИОР, ИНФРА-М, 2016. – 384 с.
9. Elder R.J., Beasley M.S., Hogan C.E., Arens A.A. Auditing and Assurance Services: International Perspectives. – 17th ed. – Harlow: Pearson, 2020.
10. Beasley M.S., Carcello J.V., Hermanson D.R., Neal T.L. Fraudulent Financial Reporting: 1998–2007. – New York: COSO, 2010.
11. DeAngelo L.E. Auditor size and audit quality // Journal of Accounting and Economics. – 1981. – Vol. 3, No. 3. – P. 183–199.
12. Francis J.R. What do we know about audit quality? // The Britiş Accounting Review. – 2004. – Vol. 36, No. 4. – P. 345–368.
13. DeFond M., Zhang J. A review of arçival auditing researç // Journal of Accounting and Economics. – 2014. – Vol. 58, No. 2–3. – P. 275–326.
14. Kneçel W.R., Krişnan G.V., Pevzner M., Şefçik L.B., Velury U.K. Audit quality: Insights from the academic literature // Auditing: A Journal of Practice & Theory. – 2013. – Vol. 32, Suppl. 1. – P. 385–421.
15. Deçow P.M., Sloan R.G., Sweeney A.P. Causes and consequences of earnings manipulation // Contemporary Accounting Researç. – 1996. – Vol. 13, No. 1. – P. 1–36.
16. Beasley M.S. An empirical analysis of the relation between the board of director composition and financial statement fraud // The Accounting Review. – 1996. – Vol. 71, No. 4. – P. 443–465.
17. Becker C.L., DeFond M.L., Jiambalvo J., Subramanyam K.R. The effect of audit quality on earnings management // Contemporary Accounting Researç. – 1998. – Vol. 15, No. 1. – P. 1–24.
18. Healy P.M., Wahlen J.M. A review of the earnings management literature and its implications for standard setting // Accounting Horizons. – 1999. – Vol. 13, No. 4. – P. 365–383.
19. Semikolennyx N.V. Методики аудита финансовых результатов от обычных видов деятельности // Вектор экономики. – 2022. – № 9. – С. 17–27.
20. Avlokulov A.Z. Auditorlik tekşiruvlarida içki nazorat tizimini baholaşning uslubiy masalalari // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2024. – 4-jild, maxsus son. – B. 86–91.
21. Avlokulov A.Z. Moliyaviy hisobot auditida baholangan qiymatlar böyiça dalillar töplaş yönalişlari // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2025. – 5-jild, 3-son. – B. 1–6.
22. Xolikov B. Auditorlik dalillarini şakllantiriş va umumlaştiriş xususiyatlari // Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. – 2022. – № 2. – B. 1–16.
23. Şerimmatov A.B. Davlat sektorida moliyaviy natijalar auditini rejalaştiriş va taşkil etiş masalalari // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2024. – 4-jild, 3-son. – B. 198–203.
24. Muxamedova S.I. Temiryöl transport korxonalarida yuk va yölovçi taşiş xizmatlaridan olinadigan daromadlar hisobini takomillaştiriş // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2025. – 5-jild, 8-son. – B. 24–34.
25. Axmedjanov K.B. Iqtisodiyotni modernizatsiya qiliş şaroitida içki audit metodologiyasini takomillaştiriş: iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toşkent, 2016.
26. Abdiyeva N.Ş. Aksiyadorlik jamiyatlarida içki audit metodologiyasini takomillaştiriş: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toşkent, 2023.
27. Törayev A.N. Xöjalik yurituvçi subyektlarda içki auditni taşkil etiş va uning uslubiyatini takomillaştiriş: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toşkent, 2020.



YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 11/1

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz